

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«TABIIY FANLAR VA GEOGRAFIYA» FAKUL'TETI

Geografiya yonalish 2-kurs 201-guruh talabasi

Mamayusupova Nodiraning

Jahon geografiyasi fanidan

**GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASI
mavzudagi**

KURS ISHI



Namangan-2014

MAVZU: GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASI

Reja:

Kirish

1. Iqtisodiy , siyosiy- geografik o'rni va tabiiy sharoiti hamda resurslari
2. Aholisi va muxnat rusurslari
3. Xo'jaligi; sanoati va qishloq xo'jaligi
4. Xizmatlar sohasi va Ichki tafovutlari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

Germaniya Markaziy Yevropada joylashgan. Quruqlikda u Niderlandiya, Belgiya, Luksemburg, Fransiya, Shveysariya, Avstriya, Chexiya, Polsha, Baniya bilan chegaradosh. Germaniyaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida uning iqtisodiy va siyosiy-geografik holatining o'ziga xos xususiyatlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Yevropaning markazida, iqtisodiy jihatdan yuksak rivojlangan davlatlarga yaqin, transyevropa bosh yo'lining kenglik va uzunlikdagi kesishgan yerida joylashganligi Germaniyaga katta foyda keltirmoqda. Muhim afzalliklardan yana bir — Germaniyaning dengiz yaqinida joylashgani va qo'shni mamlakatlarning yirik port shaharlari (Rotterdam, Antverpen va b.) ga yaqinligi bilan bog'langandir. 1989- yilning oktabrida ikki davlat GFR va GDR birlashganidan keyin Germaniya hozirgi chegaralariga ega bo'ldi. Natijada, GFR hududi 43 % ga, aholisi esa 27% ga ko'paydi.

GFR — parlament Respublikasi. Hududiy-siyosiy tuzilishiga ko'ra, 16 yerdan tashkil topgan federatsiya, bular quyidagilardan iborat: Baden-Vurtemberg, Bavariya, Berlin, Brandenburg, Bremen, Gamburg, Gessen, Meklenburg (oldingi Pomeraniya), Quyi Saksoniya, Reynland-Pfals, Shimoliy Reyn-Vestfaliya, Saar. Saksoniya, Saksoniya-Apgalt, Tyuringiya va Slilezvig-Golshteyn

Rudali foydali qazilmalarning konlari o'rtacha balandlikdagi tog'larga, neft va tabiiy gaz konlari esa Shimoliy Germaniya pasttekisligiga to'g'ri keladi. G'arbiy Yevropa davlatlari o'rtasida Germaniya o'zining toshko'miri va qo'ng'ir ko'miri bilan ajralib turadi. Toshko'mirning asosiy konlari Rur, Saar va Axen havzalaridajoylashgan, ko'mirning 2/3 qismi yuqori sifatli kokslanadigan ko'mirdir.

Qo'ng'ir ko'mirning ishonclili zaxiralarining (80 mlrd. t) katta qismi Sharqiy Germaniyadajoylashgan. Uocliiq usulda qazib olinadi. Tabiiy gaz konlari (340 mlrd. m³) mamlakatning shimolida to'plangan. Temir rudalari zaxiralari mavjud bo'lsa-da, biroq ularning sifati past. Shimoliy Germaniya pasttekisligida tosh tuzining katta qatlamlari joylashgan. Kaliy va magniy tuzlarining zaxiralari ham mavjud.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish va shisha sanoati uchun xomashyo resurslari kattadir.

Mamlakatning yirik daryolari — Reyn, Elba, Vezەر, Ems (Shimoliy va Boltiq dengizlari havzalari) va Dunay (Qora dengiz havzasi). Barcha muhim daryolar kanallar bilan tutashtirilgan. 1993- yilda Shimoliy dengizdan Qora dengizgacha bo'lgan transyevropa suv yo'lining qurilishini yakunlagan Mayn—Dunay kanali ochildi. O'rta Germaniya kanali va uning Berlin hamda Vezér daryosigacha bo'lgan davomi ta'mirlanmoqda. Xalqaro daryo mavqeyiga ega bo'lgan Reyn daryosining iqtisodiy ahamiyati Germaniya uchun juda muhimdir.

1. Iqtisodiy , siyosiy- geografik o'rni va tabiiy sharoiti hamda resurslari

Maydoni – 357 ming km² , aholisi – 82,2 mln. kishi (2008 yil, iyul)

Poytaxti Berlin (aholisi – 3,5 mln. kishi) Germaniya Markaziy Yevropada joylashgan industrial mamlakat. Quruqlikda iqtisodiy rivojlangan davlatlar – Niderlandiya, Belgiya, Lyuksemburg, Frantsiya, SHveytsariya, Avstriya, CHexiya, Polsha va Daniya bilan chegaradosh.

Iqtisodiy va siyosiy- geografik o'rni:

- Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar bilan qo'shni, kenglik va meridional yo'nalishda transeropa magistral yo'llari (avtomobil, temir yo'l, havo yo'llari) kesishganligi:

- Mamlakat shimoliy qirg'oqlarini xalqaro savdo yo'llariga chiqish imkoniyatini beruvchi Boltiq va SHimoliy dengiz suvlari yuvib turishi va yirik xalqaro ko'lamdagi – Gamburg, Bremen, Vil'gel'msxafen, Rostok portlari hamda qo'shni xalqaro portlar – Rotterdam, Antverpen va boshqalarga yaqinligi;

- Evropa mamlakatlarining ichki suv yo'llari orqali bog'lovchi Reyn daryosi (xalqaro statusga ega), SHimoliy dengiz va Qora dengizni bir-biri bilan bog'lovchi Mayn-Dunay transeropa suv yo'li (1993 yil qurilgan), O'rtagerman kanalining (Berlin va Oder daryosiga qadar) mavjudligi;

- Qulay iqtisodiy-geografik holati nafaqat Yevropa balki xalqaro miqyosdagi ko'plab yarmarka o'tkazuvchi markazlarning (Gannover, Kyoln, Frankfurt-na-Mayne, Leyptsig va boshq.) shakllanishiga shart-sharoitlar hozirlagan.

Germaniyaning bugungi chegaralari 1990 yil oktyabr oyida ikki davlat GFR va GDR qo'shilishidan vujudga keldi. Yuridik jihatdan GDR yerlari va Berlin shahri GFR tarkibiga kirganligi rasmiylashtirilgan. Natijada, GFR hududi GDR qo'shilgandan so'ng 43% ga va aholisi 27% ko'paydi.

Germaniya parlamentar respublika. Siyosiy-ma'muriy tuzilishi federatsiya shaklida bo'lib, 16 federal yerlardan – Baden-Vyurtemberg, Bavariya, Berlin, Brandenburg, Bremen, Gamburg, Gessen, Meklenburg-Old Pomeraniya, Quyi Saksoniya, Reynland-Pfalts, SHimoliy Reyn-Vestfaliya, Saar, Saksoniya,

Saksoniya Angalʼt, Tyuringiya va SHlezvig-Golʼshteyndan iborat. Yerlar okruglarga, tumanlarga va jamoalarga boʻlinadi.

Amaldagi konstitutsiyaga koʻra federativ respublika. Davlat boshligʻi – federal prezident. Ijro etuvchi hukumatni federal kantsler boshqaradi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni parlament amalga oshiradi. U ikki palata: bundestag va bundestratdan iborat. Har bir yerning oʻz konstitutsiyasi, parlamenti va hukumati mavjud.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Relʼefi jihatidan xilma-xil boʻlib, shimolda tekislik, janubga tomon koʻtarilib boradi. Mamlakatning shimolida SHimoliy German pasttekisligi, mamlakat markazida Oʻrtagerman togʻlari (SHvartsvaʼld, SHvab Alʼbi, Frankon Alʼbi, Reyn Slanetsli togʻlari), janubda Bavariya yassi togʻligi va Alʼp (eng baland nuqtasi 2962 m) togʻlari joylashgan.

Foydali qazilmalardan oʻrtacha balandlikdagi togʻlarda – temir rudasi, polimetall, SHimoliy German pasttekisligida - neft va tabiiy gaz (34 mlrd. m³ ortiq) bor. Gʻarbiy Yevropa mamlakatlari oʻrtasida toshkoʻmir va qoʻngʻir koʻmirlar (1-oʻrinda turadi) boy. Toshkoʻmirning asosiy havzalari – Rur, Saar va Axen boʻlib 2/3 qismi yuqori sortli kokslanuvchi koʻmirdir. Qoʻngʻir koʻmirning aniqlangan zahiralari (80 mlrd. t.). SHarqiy (Lauzitsk va Oʻrtagerman havzasi) va Gʻarbiy Germaniyada (Quy Reyn) qoʻngʻir koʻmir ochiq usulda qazib olinadi. SHuningdek, uran, tosh tuz, kaliyli tuzlar, magniy, qurilish materiallari va oyna sanoati resurslariga ega.

Iqlimi moʻʼtadil dengiz iqlimi, gʻarb va shimoli-gʻarbdan janubi-sharqqa tomon dengiz iqlimidan moʻʼtadil kontinental iqlimga oʻtadi. Qattiq sovuq kam boʻladi. Yanvarning oʻrtacha harorati 1,5° +6° va iyulning oʻrtacha harorati 18°+20°. Yillik yogʻin miqdori 600-800 mm, baland togʻlarda 1000-2000 mm. Eng yirik daryolari Elʼba, Reyn, Dunay, Mayn, Vezir, SHire, Mozal, yirik koʻllari – Boden, Myurits. Mineral suvlarga boy (Baden-Baden va boshqalar kurort-rekreatsiya ahamiyatiga ega). Aholining ichimlik suviga boʻlgan ehtiyojining 90% yer osti suvlari hisobiga qondiriladi.

Tuproqlari asosan podzol, chimli podzol, o'rmon-qo'ng'ir, qoramtir tuproqlardan tashkil topgan. Tuproqlar unumdorligini oshirishda va uning tarkibini yaxshilashda mineral o'g'itlardan keng foydalaniladi. Tabiiy o'rmonlar deyarli qolmagan. Mamlakat hududining 30% ni qoplagan o'rmonlar ekilgan va ikkinchi marta tiklangan. Tabiatni asrash va qo'riqlash sohasida hukumat va aholi tomonidan amaliy yo'nalishdagi katta tadbirlar o'tkaziladi. Turizm va uning industriyasi tez rivojlanib bormoqda. Milliy bog'lar (Bavariya o'rmoni, Berxtesgaden va boshq.), milliy parklar, qo'riqxonalar barpo qilingan (60 dan ortiq).

Aholisi. Ikki German davlatining qo'shilishi tufayli aholi soni jihatidan G'arbiy Yevropada 1-o'ringa chiqdi. GFR XX asrda ikki jahon urushini boshidan kechirdi va ko'p aholi yo'qotdi. Bugungi kunda tabiiy o'sish koeffitsenti-0,2%, tug'ilish koeffitsenti 8/1000 va o'lim koeffitsenti 10/1000 bo'lib, millatning qarish tendentsiyasi xosdir. O'rtacha umr ko'rish 79 yosh (erkaklarda 77 yosh va ayollarda 82 yosh). Aholining o'rtacha zichligi bir km² ga 230 kishidan to'g'ri keladi.

XX asr 60-yillaridan boshlab Germaniyada iqtisodiy yuksalish natijasida ishchi kuchiga ehtiyoj kuchaydi va mamlakatga chet el ishchilari - «gastarbayerlar» taklif qilinishi oqibatida aholi soni tez o'sdi. Germaniyadagi yuqori ish haqi, shinam va qulay hayot hamda mehnat sharoiti tufayli Italiya, Sobiq Yugoslaviya respublikalari, Gretsiya, Turkiya, Portugaliya va boshq. mamlakatlardan, 1980-yillarning oxiri va 1990-yillarning boshlarida esa sobiq SSSRdan (Ukraina, Rossiya, Boltiqbo'yi davlatlari va boshq.), Pol'sha, Ruminiyadan immigrantlar ko'plab kela boshladi va ularning soni 7 mln. kishidan ortib, mamlakat aholisining 8% dan ortig'ini tashkil qiladi.

Davlat tili – nemis tili. Aholining asosiy qismi (93%) nemislardan, qolgani boshqa mamlakatlardan kelgan immigrantlardan iborat. Asosiy din xristianlik bo'lib, 58 mln. kishi e'tiqod qiladi va bundan 30 mln. protestantlar va 28 mln. katoliklardir. Boshqa dinlardan islom dini keng tarqalgan.

Mamlakatning 90% aholisi shaharlarda istiqomat qiladi. 500 mingdan ortiq aholi yashaydigan shaharlar - Berlin, Gamburg, Myunxen, Kyoln, Essen, Dyusseldorf, Frankfurt, Dortmund, SHtutgart, Gannover, Bremen, Duysburg, Leyptsig, shuningdek, Drezden, Nyurenberg, Vuppertal, Kil va boshq. Yirik, ko'p yadroli shahar aglomeratsiyalari Berlin (3,5 mln. ortiq), Reyn-Rur, Reyn-Mayn, SHtutgart, Galle-Leyptsig, Drezden shaharlari asosan Reyn daryosi va dengiz bo'yida joylashgan. SHaharlar qadimiy bo'lib, miloddan oldin Rim kolonizatsiyasi davrida va o'rta asrlarda dastlabki universitet shaharlari (Xaydelberg, Frayburg, keyinroq - Morburg, Myunstr) shakllangan.

Xo'jaligi. GFR dunyo iqtisodiyotining «lokomativi» sifatida iqtisodiy rivojlanish sur'atlari va ko'lami, salohiyati, jahon ishlab chiqarishidagi hissasi, xalqaro bozor va xalqaro mehnat taqsimotiga tortilganlik ko'rsatkichlari jihatidan yuqori darajada rivojlangan «ettilik» mamlakatlari qatoriga kiradi. YaIM¹ va sanoat ishlab chiqarishi hajmi jihatidan dunyoda 4-o'rinda (AQSH, Yaponiya, Xitoy) va tashqi savdo aylanmasi jihatidan 2-o'rinda turadi. Dunyo eksportining 10% to'g'ri keladi. Eng yirik kapital eksporti va importi mamlakatidir. Germaniya 1957 yilda tuzilgan Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (bugungi Yevropa Ittifoqi) tuzilishi tashabbuskori sifatida Yevropa kontinentida xalqaro iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish uchun intilmoqda. Ayni vaqtda 2008 yildan boshlangan moliyaviy inqiroz mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli zarba berdi.

XX asr oxirgi o'n yilligida sharqiy yerlarning qo'shib olinishi oqibatida sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi orqaga ketdi, Sotsial muammolar (jumladan, ishsizlik) ko'paydi. CHunki, 40 yil davomida bo'lingan holda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish, (xo'jalik tarkibi va hududiy taraqqiyot), bugungi Germaniya iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. GFRda hududiy tabaqalanish va xo'jalik rivojlanish darajasidagi farqlar kuchaydi, Jumladan, 1994 yil sharqiy yerlarga 20% mamlakat aholisi to'g'ri kelgani holda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining 4%ini berdi, xolos.

¹ 2006 йил ЯИМ 2,632 трлн. аҳоли жон бошига 31,9 минг доллардан тўғри келади.

Sanoat tarkibida ishlov beruvchi sanoat hisssasi juda yuqori (qazib beruvchi sanoat hisssasi G'arbiy yerlarda 2%, SHarqiy yerlarda 9%). Qazib beruvchi sanoatda temir rudasi, mis, uran qazib chiqarish, hatto ko'mir qazib chiqarish amalda to'xtab nisbatan arzon xom ashyo importi kuchaygan.

Germaniya iqtisodiyotida ilmtalab tarmoqlar roli tobora ortib bormoqda. GFR stanoklar, ishlab chiqarish jihozlari, avtomobillar va organik sintez kimyosi mahsulotlari eksporti bo'yicha dunyoda oldingi o'rinlarda turadi. Yirik sanoat kompaniyalari: Daimler Benz, Volkswasen, Siemens, Hoechst, Bayer va boshq. transmilliy korporatsiyalardir. GFR milliy iqtisodiyotining sifat ko'rsatkichlari – mehnat unumdorligi va ishlab chiqarishning kapital bilan ta'minlanganlik darajasi, ilmtalab tarmoqlar hissasining doimiy ortib borishi va boshqa jihatlarga ko'ra dunyo xo'jaligida yetakchi o'rinlardan birida turadi.

GFR dunyodagi yetarli darajada foydali qazilmalar, qulay agroiklimiy xususiyatlarga ega bo'lmasada, milliy iqtisodiyotning rivojlanishida «nemis mo''jizasi»ga erishgan mamlakat. Bunday iqtisodiy mo''jizaga erishishda iqtisodiy o'sishning qator omillari – ilmiy-texnika progresssi yutuqlaridan samarali foydalanish, «inson kapitalining» yuqori malakaviy sifati va oqilona ichki iqtisodiy siyosat muhim rol o'ynadi:

- Germaniya XIX asrdan boshlangan ilmiy va texnik bilimlarga asoslangan jahon andozalaridagi kimyo, optik fizika, metallurgiya, mashinasozlik va boshqa sohalarda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot an'analariga egadir;

- Ilmiy-tadqiqotlardagi yutuq va marralar tufayli Germaniya kompaniyalari raqobatda ustunlik qilishiga, sanoat firmalari YeI va boshqa Yevropa mamlakatlarini birgalikda olganda ham ko'p patent va litsenziyalarga egaligi (ammo Amerika va Yaponiya firmalaridan orqada);

- YaIMda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga xarajatlar (3% atrofida) ko'lam jihatdan dunyodagi beshlikka kirishi (Yaponiya singari urushdan keyingi yillarda o'zida ilmiy-tadqiqotlarga ko'p mablag' sarflamay xorij bozorlaridan texnologiyalarning katta qismi sotib olingan), keyingi o'n yillikda davlat fundamental tadqiqotlar, YeI doirasida davlatlararo ilmiy-tadqiqot, kichik

biznesda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga sarflanadigan mablag'larning katta qismini o'z zimmasiga oldi va mamlakat ichki salohiyatini kuchaytirmoqda. Bu esa xalqaro bozorda nemis tovarlarining yuqori raqobatbardoshligini ta'minlamoqda;

- GFR uchun yuqori intellektual «inson kapitali» xos bo'lib, bu aholining ma'lumot darajasi, kasbiy-malakaviy tarkibi, ijtimoiy tarkibi, salomatlik darajasi, yangiliklarni, murakkab zamonaviy yuksak texnologiyalarni juda tez o'zlashtirishi va o'ta ijrochilik mahorati bilan ajralib turishi;

- ITI sharoitida mehnatning intellektuallashuvi va ishchi-xodimlarning mutaxassisligi, ma'lumotiga bo'lgan talabning kuchayishi (yuqori malakali ishchilar hissasi dunyo bo'yicha yuqori bo'lib, 50% ni tashkil qiladi), o'rta va oliy ta'lim, sog'liqni saqlash, kasbiy ta'limga e'tiborning ortib borishi;

- Germaniyada urushdan keyingi neoliberalizm kontsepsiyasi asosida «sotsial bozor xo'jaligi», fashistik totalitar iqtisodiyotning muqobili sifatida shakllandi. Bu kontsepsiya iqtisodiyot vaziri, so'ngra federal kantsler L.Erxard tomonidan amalga oshirildi. Bu kontsepsiya asosida «Freyburg maktabi» olimlari V.Oyken va V.Repkening «ordoliberalizm», qaysiki erkin bozor iqtisodiyoti tarafdorlari va A.Myuller-Armak va boshqalarning «sotsial bozor iqtisodiyoti» ta'limotlari yotadi va bu ta'limotlarning mamlakat ichki iqtisodiy siyosatiga asos qilib olinishi;

- ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilik, erkin raqobat va erkin narxlar asosida ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish negizida aholi ehtiyojlarini to'laroq qondirish;

- davlatning iqtisodiyotdagi faol roli, qaysiki, fuqarolarning iqtisodiy erkinligini ta'minlash, pul muomalasini tashkillash va ma'sulligini olish, iqtisodiy inqirozlarga qarshi kurashish, sotsial adolatni, raqobat uchun teng sharoitni ta'minlash va iqtisodiyotdagi monopolizmga yo'l qo'ymaslik tamoyillaridir.

XX asrning 50-yillari oxirida GFRda yuqori turmush tarzi ta'minlandi. 80-yillardan boshlab iqtisodiy o'sishning intensiv yo'llari amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda GFR iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga xos – postindustrial

jamiyatdir (informatsion jamiyat). Ayni vaqtda, Germaniya tarixiy-iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liq boshqa mamlakatlardan farq qiluvchi xususiyatlarga ega:

- Mamlakatning industriallashuvi keyinroq (boshqa Yevropa mamlakatlariga nisbatan) ya'ni, 1871 yil Germaniya birlashgandan so'ng boshlandi va XX asr boshlarida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha Angliyadan o'tib ketdi (ayniqsa, kimyo va elektrotexnika sohasida). Germaniya iqtisodiyoti uchun «o'ta industrlashuv» xos bo'lib, milliy iqtisodiyotda sanoatning hissasi 39% atrofida.

- Ikkinchi jahon urushidan keyin GFR ikkiga bo'lingan holda sanoatda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirdi. Ishlov beruvchi sanoatda – kimyo va neft–kimyo, mashinasozlik, va metallni qayta ishlash, elektrotexnika, avtomobilsozlik, aniq mexanika va optika, aholiga keng iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, xalqaro bozor va xalqaro mehnat taqsimoti jarayonlariga moslashdi.

- Investitsiya yo'nalishlari o'zgardi va 80% kapital qo'yilmalar modernizatsiyalash va jihozlarni yangilashga, 20% quvvatlarni kengaytirishga qaratildi.

- Germaniya tovarlari yuqori raqobatbardoshligining asosi mahsulotlarning doimiy yangilanishidir. Natijada, yetakchi sanoat kontsernlarining ilmiy-tadqiqotlar asosidagi doimiy yangi mahsulotlari (tibbiyot texnikasi, dori-darmonlar va boshq.) xalqaro bozorda asosiy o'rin egallasa, an'anaviy eksport tarmoqlari ham bir qator texnik yutuqlar ta'sirida yetakchilikka ega bo'lmoqda-ki, bu tashqi iqtisodiy aloqalarda ustunlikka olib kelmoqda.

Germaniya iqtisodiyoti ko'p ukladli bo'lib Germaniyadagi «sotsial bozor xo'jaligi» sog'lom raqobat, tadbirkorlik erkinliklari va xo'jalik faoliyati kafolatiga asoslanadi. Bu tamoyil asosiy qonunda (GFR Konstitutsiyasi) belgilab qo'yilgan. Raqobatni qo'llab-quvvatlash antimonopol qonunchili, kichik va o'rta tadbirkorlikni (kichik biznes) qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi.

Kichik biznes (10 kishidan 500 kishigacha) barcha firmalarning 99,8% tashkil qiladi. Bunga 2/3 qism ishchi va 4/5 qism shogirdlar o'zni to'g'ri keladi. Kichik biznesga YaIM 46%, sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning 50%, yalpi

investitsiyaning 44%, tovarlar eksportining 40% to'g'ri keladi. Xizmat ko'rsatish sohalarda 35% kichik firmalar faoliyat ko'rsatadi. Davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishning (xatto innovatsion sohalarda ham) butun boshli tizimi yaratilgan.

Ayni vaqtda, GFR iqtisodiyoti uchun yirik ishlab chiqarish va sertarmoq kontsernlarning uyg'unlashuvi xosdir. Yirik firma va kontsernlar ko'p bo'lmasada, Germaniya iqtisodiyoti siymosi sifatida xo'jalikning barqarorligi, ishonchliligi va samaradorligi kafolatidir. Germaniya iqtisodiyotida ishlab chiqarish kontsentratsiyasi va kapital markazlashuvining yuqori darajasi xos bo'lib, zamonaviy tarmoqlar, bank, moliya-kredit institutlari, sug'urta kompaniyalari ichki bozorda yetakchi o'rin tutishidan tashqari xalqaro ko'lamda ham mustaqkam pozitsiyaga ega.

Sanoati. GFR sanoati tarkibida ilmtalab tarmoqlar, metallurgiya elektrotexnika, elektronika, kimyo, avtomobilsozlik va kemasozlik (dunyoda 3-o'rinda), aerokosmik va qurilish yetakchi mavqega ega. Rivojlangan yoqilg'i-energetika bazasiga ega. Yoqilg'i resurslariga bo'lgan ehtiyojining 50%ini import hisobiga qondiradi. Neftni asosan Nigeriya, Liviya, Fors ko'rfazi mamlakatlari va Rossiyadan import qiladi va o'zi SHimoliy dengizdan qazib oladi. Yirik neftni qayta ishlovchi zavodlar Gamburg, Kyoln, Karlsruhe, Ingol'shtadt, SHvedt shaharlarida joylashgan. Tabiiy gazni Norvegiya, Niderlandiya (SHimoliy dengiz) hamda Rossiyadan import qiladi va o'zi ham oz miqdorda qazib chiqaradi.

Toshko'mir qazib chiqarish XX asrning 50-yillarida yiliga 152 mln. tonnaga yetdi (hozir 53 mln. t. tushib qolgan) va energetika sanoatining asosini tashkil qilgan bo'lsa, keyingi yillarda xalqaro bozordagi raqobatga chiday olmadi (Germaniya ko'miri xalqaro bozorda boshqa ko'mir eksport qiluvchi mamlakatlar ko'miriga nisbatan 3-4 marta arzon) va eksportchi mamlakatdan importchi mamlakatga aylandi. Toshko'mirni AQSH, Pol'sha, JAR va Avstraliyadan import qiladi. Yiliga 20 mln. t. Qo'ng'ir ko'mir qazib chiqariladi.

Yoqilg'i-energetika balansida IESlarning (Rur va Saar havzalarida ko'mir, Germaniya shimolida tabiiy gaz, port shaharlarda ko'mir va mazut asosida) roli

katta. Yiliga 581 mlrd. kVt/s elektr energiyasi hosil qiladi va buning 64,3% IESga, 4,4% GESga, 30% AESlar hissasiga to'g'ri keladi.

Qora metallurgiya sanoati an'anaviy ixtisoslashgan tarmoq bo'lib, bugungi kunda xalqaro raqobatga qiyinchilik bilan chidamoqda va chuqur tarkibiy o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Mamlakat cho'yan, po'lat eritish va prokat ishlab chiqarish bo'yicha G'arbiy Yevropada yetakchi va dunyoda 5-o'rinda turadi. Po'lat asosan kislorod-konvertor va elektrod usullari orqali eritiladi (45 mln. t.). Yirik metallurgiya korxonalari Rur va Qo'yi Reynda, Saar rayoni (Saarbryukken), Qo'yi Saksoniya va Bremenda joylashgan bo'lsa, prokat ishlab chiqarish mamlakatdagi mashinasozlik sanoati markazlarida to'plangan.

Rangli metallurgiya asosan import xom ashyo va ikkilamchi metallar (rangli metall chiqindilari) hisobiga ishlaydi. Rangli metallurgiya korxonalari joylashishida energoresurslar bilan ta'minlanganlik va xom ashyo tashish qulayligi asosiy omildir. Alyuminiy eritish bo'yicha G'arbiy Yevropada Norvegiyadan keyingi o'rinda turadi. Asosiy korxonalari SHimoliy Reyn (Essen, Norf, Fyorde), Gamburg va Bavariya (Tyoging) hamda qora mis eritish (birlamchi korxonalar) Gamburg va Lyunenda joylashgan.

Mashinasozlik va metallni qayta ishlash rivojlangan va ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlari bilan chambarchas bog'liq o'zak tarmoqdir. Mashinasozlik majmuasi hissasiga GFR yalpi sanoat mahsulotining va eksportining 50% to'g'ri keladi. Ayni vaqtda, mashinasozlik sanoati mahsulotlarining 40% eksportga chiqariladi. Yirik mashinasozlik sanoati markazlari – Myunxen, Nyurnberg (Erlangenom bilan), Berlin, Leyptsig, Gamburg. Umumiy mashinasozlik korxonalari Baden-Vyurtenberg va SHimoliy Reyn-Vestfaliya yerlarida, elektrotexnika korxonalari esa Bavariyada joylashgan. Yirik markazlari – Myunxen (Siemens), Berlin, SHtutgart, Kyoln, Gamburg, Frankfurt-na-Mayne.

Avtomobillar ishlab chiqarish bo'yicha Yaponiya va AQSHdan keyingi 3-o'rinda turadi. XXI asr boshlariga kelib «Daymle-Bents» kontserni «Kraysler»

kontsernlari o'zaro birlashdi. Avtomobilsozlik markazlari – Volʼfsburg, SHtutgart, Kyoln, Ryusselʼsxaym, Myunxen shaharlaridir.

Dengiz kemasozligi rivojlangan bo'lib, yuqori sifatli yuk va yo'lovchi tashuvchi kemalar ishlab chiqarish - Kil, Gamburg, Bremen, Emden, Rostok shaharlarida, daryo kemachiligi Duysburgda joylashgan.

Yirik optika-mexanika sanoati korxonalari Baden-Vyurtemberg va Tyurengiya yerlarida, aerokosmik sanoati korxonalari Myunxen, Augsburg, Gamburg, Bremenda (shahar atrofi bilan) joylashgan.

Kimyo sanoati eng rivojlangan rayon SHimoliy Reyn-Vestfaliya yeridir (40% kimyo sanoati mahsuloti to'g'ri keladi). Yirik markazlari – Leverkuzen (Vaueg kontserni), Kyoln, Dormagen, Frankfurt-na-Mayne (Hoechst kontserni), Lyudvigshafen (VASF kontserni). SHarqiy Germaniya birlashgandan so'ng kimyo sanoati chuqur krizisni o'z boshidan kechirdi.

Engil va oziq-ovqat sanoati qadimgi sanoat tarmoqlaridan biri bo'lib, rivojlanganlik darajasi jihatidan dunyoda kuchli o'nlikka kiradi. Pivo (aholi jon boshiga yiliga 160-170 l. ishlab chiqaradi va 150 l. iste'mol qilinadi), qand-shakar, sut, go'sht, tikuvchilik, trikotaj, oyna-keramika sanoati to'la mahalliy xom ashyoga, ip-gazlama, jun, teri-poyabzal, rezina, tamaki, margarin, shokolad va boshqa tarmoqlar import xom ashyoga asoslangan. Yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari xom ashyo yo'nalishiga mos joylashgan. Qadimiy va o'ziga xos an'anaviy hunarmandchilik taraqqiy etgan.

Qishloq xo'jaligi. XX asrning 50-yillaridan GFR qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi industrial asoslarga ko'chdi. Qishloq xo'jaligida ITI yutuqlari keng ko'lamda, ishlab chiqarish va kapital kontsentratsiyasi, intensiv usullar negizida agrosanoat majmuasi, 70-yillardan boshlab agrobiznes jadal rivojlana boshladi. Qishloq xo'jaligining YaIMdagi hissasi juda oz (taxminan 1,1%), ammo aholi xarajatlari tarkibida muayyan o'ringa ega, aholi jon boshiga o'rtacha oziq-ovqat ta'minoti yuqoridir (sut, go'sht, tuxum va boshq.). Qishloq xo'jaligida band aholi sonining keskin qisqarishiga qaramay (1950 yil jami band aholining 20% qishloq xo'jaligida band bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda 3,2% band bo'ldi), ishlab

chiqarishning barqaror rivojlanishi aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini 90% ta'minlashga erishildi.

Qishloq xo'jaligini intensiv industrilashtirish XX asrning 50-60 yillarda amalga oshirildi va iqtisodiyotning kapital talab tarmog'iga aylandi. Mexanizatsiyalashuv darajasi jihatidan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar o'rtasida birinchi o'rinda turadi. 80-yillardan boshlab intensiv omillar ta'sirining yanada kuchayishi va iqtisodiyotda texnik resurslarni tejash yo'nalishiga o'tildi:

- Traktor va don o'rish kombaynlari quvvatining ortishi tufayli fermerlar tomonidan bunday texnikalarni sotib olish kamaydi.

- Universal agregatlardan foydalanish ko'paydi. Qishloq xo'jaligi mashinalari mikroprotessorlar bilan jihozlandi.

- Mineral o'g'itlar, o'sish stimulyatorlari, o'simliklarni himoya qilish vositalaridan foydalanishning ortishi tabiiy sharoitlarga bog'liq bo'lmagan holda yuqori hosil olish imkonini berdi. Fermer xo'jaliklarida tobora yuqori samarali vositalardan foydalanish asosida 1 ga. yerga bo'lgan «yukni» ozaytirish hisobiga tabiat va insonga kamroq zarar yetkazishga harakat qilish jarayoni boshlandi.

- CHorvachilik va ziroatchilik tarmoqlarida o'simliklarni himoya qilishda biologik usullardan – organik o'g'itlardan va gen muhandisligi yutuqlaridan foydalanish kuchaydi.

- Bu jarayonlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining yuqori samarali bo'lishidan tashqari, atrof-muhitga texnogen ta'sirini ham kamaytirdi.

GFR qishloq xo'jaligi uchun ishlab chiqarish va kapital kontsentratsiyasi avvalo:

- Fermer xo'jaliklarni umumiy sonining (mayda xo'jaliklar hisobiga) qisqarishi;

- O'rtacha fermer xo'jaliklarining yiriklashuvi;

- Fermer xo'jaliklarini tashkillashda zarur kapital minimal hajmining ortishi bilan xarakterlanadi.

SHunga qaramay, fermer xo'jaliklarining daromad olish darajasi Buyuk Britaniya, Benilyuks mamlakatlari va Frantsiyadan orqada. Qishloq xo'jaligidagi

kontsentratsiya va vertikal integratsiya negizida agrar ishlab chiqarish va noagrar sohalarning qo'shilishi nisbatida agrosanoat majmuasi – qishloq xo'jaligi uchun ishlab chiqarish vositalari ta'minoti, transport, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, savdo, umumiy ovqatlanish, kredit institutlari, sug'urta va qishloq xo'jaligini tartiblash organlarining bir doirada uyg'unlashuvi asosida rivojlanmoqda.

GFR qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida chorvachilik yetakchi soha (60% qishloq xo'jaligi mahsulotlari qiymati to'g'ri keladi) bo'lib, dehqonchilik, chorvachilik manfaatlari (em-xashak yetishtirish) asosida rivojlangan. CHorvachilikda yirik shoxli hayvonlar va cho'chqachilik ustivor tarmoq. CHorvachilik deyarli mamlakatning barcha federal yerlarida rivojlangan bo'lsada, hududlar bo'yicha bir xil emas. Sut chorvachiligi Reyn va Nekkara vodiylarida, SHimoli-G'arb, Bavariyaning tog'li yaylovlarida, cho'chqachilik shimoliy rayonlar, Quyi Saksoniya janubida, qo'ychilik janubiy tog'li rayonlarda rivojlangan.

Ekin maydonlari GFR hududining 35%ni tashkil qiladi. Donli ekinlar g'arbiy yerlarda haydaladigan yerlarning 3/5 qismidan ko'prog'ini, sharqiy yerlarda esa 1/2 qismini tashkil qiladi. Asosan, donli ekinlardan bug'doy, rojъ, arpa, tariq yetishtiriladi. Texnika ekinlaridan qand lavlagi, yem-xashak ekinlari, ildiz mevalilar ko'p ekiladi. Ayrim arpa sortlari pivo sanoati uchun maxsus ekiladi. Bavariyada xmel yetishtiriladi (pivo uchun). Ko'plab kartoshka va sabzavot yetishtiriladi. Reyn vodiysi va uning irmoqlarida uzumchilik-bog'dorchilik va tamakichilik rivojlangan. CHorvachilik uchun yem (AQSHdan) import qilinadi. Oziq-ovqat uchun don bilan o'zini to'la ta'minlaydi.

GFR hududining 1/3 qismi o'rmonlar bilan qoplangan (10,7 mln. ga). Har yili 30-40 mln. m³ yog'och tayyorlanadi va ichki ehtiyojlarning 2/3 qismini qoplaydi. Ayni vaqtda, yog'och eksport qiluvchi mamlakat hamdir. SHimoliy va Boltiq dengizlari, Grenlandiya oroli atrofidan baliq ovlanadi.

Xizmatlar sohasi. GFRning haddan tashqari «o'ta sanoatlashgan»iga qaramay keyingi yillarda YaIM tarkibida moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari va

bandlar hissasining qisqarishi va xizmat ko'rsatish sohalari (bu tarmoq ulushi YaIMda 37% dan iborat) ulushining ko'payib borishi xosdir. Bu jarayon moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini qo'llash (ishlab chiqarish xizmatlarining ortishi) orqali mehnat unumdorligining ortishi, aholi is'temoli tarkibining o'zgarishi va turmush darajasining yaxshilanishi, bo'sh vaqtning ortishi va boshqa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga xos jarayonlar bilan bog'liqdir. Ayni vaqtda, yuqorida ta'kidlanganidek, Germaniya o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, bu davlatning sotsial yo'nalishlaridagi iqtisodiy siyosati, ta'lim, tabiatni qo'riqlash, sog'liqni saqlash, uy-joy qurilishi, sotsial ta'minot kabi sohalarda davlatning faolligi milliy iqtisodiyotda xizmatlarning ortishiga ijobiy ta'sir qilmoqda. Hozirgi vaqtda xilma-xil xizmatlar sohasida mehnatda bandlarning 57% (bundan savdo va transportda 19%), davlat boshqaruvi sohasida esa 15% band.

Transporti. GFR transport tizimining rivojlanganligi va transport to'ri jihatdan dunyoda oldingi o'rinlardan birida turadi. YeI doirasida markaziy holatni egallaganligi intensiv iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga, umumiy yuk aylanmasida barcha transport turlari hissasining yuqoriligi, transchegara yuklari aylanmasining kattaligiga (40% atrofida) olib kelgan. Asosiy transport – temir yo'l transporti (45,2 ming km) bo'lib, 2/5 qismi elektrlashtirilgan. Mamlakat yuk aylanmasida avtomobil transporti (60% atrofida), temir yo'l (20%), ichki suv transporti (15%) muhim o'rin tutadi. Yo'lovchi aylanmasida avtomobil transporti (90% dan ortiq) yetakchi o'rin tutadi va yuqori sifatli avtomobil yo'llari uzunligi 231,6 ming km (shundan 10,8 ming km, avstrada) dan ortadi.

Ichki suv yo'llarining uzunligi 7 ming km atrofida. Bosh suv magistrali – Reyn xalqaro daryosi bo'lib, unda ko'plab yirik portlar, jumladan, dunyodagi eng yirik daryo porti - Duysburg (yillik yuk aylanmasi 50 mln. t.) joylashgan. Germaniyaning barcha yirik daryolari kemachilik uchun qulay bo'lib, kanallar – O'rta German, Dortmund-Ems, Rur kanallari Rurning sanoat rayonlarini bir-biri bilan bog'laydi. Reyn-Elba aylanma kanali Gamburgga chiqish imkonini bersa, Mayn –Dunay kanali orqali Qora dengizga chiqiladi.

Germaniya konteynerlar tonnaji va parki jihatdan dunyoda AQSH, Panama va Tayvandan so'ng 4-o'rinda turadi. Ammo, Germaniya portlari yuk aylanmasi jihatdan Yevropaning boshqa mamlakatlari portlaridan (Amsterdam, Rotterdam va boshq.) orqadadir. Yirik portlar – Gamburg, Vel'gelm'sxafen (neft), Bremen, Enden, Rostok va boshq.

Havo transporti xalqaro aloqalarda katta o'rin tutadi. Barcha yirik xalqaro yarmarkalar o'tkaziladigan shaharlarda xalqaro aeroportlar (16 ta) mavjud. Frankfurt aeroporti Yevropada yuk aylanmasi jihatdan birinchi va yo'lovchi aylanmasi bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. Keyingi yillarda, Germaniya aholisi o'rtasida ommaviy turizm, ayniqsa avtoturizm jadal rivojlanib bormoqda. Har yili 100 mln. atrofida xorijiy turistlar mamlakatning tarixiy shaharlari, Al'p va boshqa tog' kurortlariga tashrif buyuradi. Turizm industriyasi milliy iqtisodiyotda yetakchi o'rin tutmoqda.

Ichki tafovutlari va iqtisodiy rayonlari: Germaniyaning 40 yil bo'lingan holda ikki ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy yo'nalishda rivojlanishi oqibatida sobiq GDR ijtimoiy-iqtisodiy va hududiy-xo'jalik tarkibi, aholining turmush darajasi jihatidan GFR dan bir necha barobar orqada qolgan edi. Bugungi kunda, Germaniyani iqtisodiy-geografik holati, tarixiy-iqtisodiy va bozor munosabatlarining rivojlanish xususiyatlari hamda hududlarining hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ko'ra ikkita yirik makroiqtisodiy rayonga – G'arbiy va SHarqiy Germaniyaga bo'lish mumkin.

- **G'arbiy Germaniya makroiqtisodiy rayoni** tarkibiga Baden-Vyurtemberg yeri, Bavariya Respublikasi, Bremen va Gamburg shaharlari, Gessen, Quyi Saksoniya, SHimoliy Reyn-Vestfaliya, Reynland-Pfal'ts, Saar, Saksoniya-Angal't, SHlezvig-Gol'shteyn yerlari kiradi. Hududi 248 ming km² bo'lib, 65,7 mln. aholi yashaydi. Iqtisodiy jihatdan g'oyat rivojlangan va urbanizatsiyalashgan mintaq. Sanoatda metallurgiya, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, kimyo, elektronika sohalari yetakchi rol' o'ynaydi. G'arbiy makroiqtisodiy rayon bugungi Germaniyaning asosiy industrial yadrosi sifatida yuksak malakali ishchilar to'planganligi hamda urbanizatsiyalashganligi bilan ajralib turadi. Ishlab chiqarish

kontsentratsiyasi va kapital markazlashuvi jihatdan G'arbiy Yevropadagina emas, balki dunyo mintaqalar o'rtasida ham yetakchi mavqega ega.

Makroiqtisodiy rayonda qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik va metalni qayta ishlash, elektrotexnika va elektronika, kimyo, neft-kimyo, yengil (to'qimachilik va tikuvchilik) va oziq-ovqat sanoati, intensiv sut-go'sht chorvachiligi va dehqonchilik rivojlangan.

- **SHarqiy Germaniya makroiqtisodiy rayoni** tarkibiga Brandenburg, Bremen, Maklenburg-old Pomeraniya, Saksoniya Respublikasi va Tyurengiya Respublikasi kiradi. Hududi 109,0 ming km², aholisi 16,5 mln. kishi (sobiq GDR hududi). Iqtisodiy rivojlanish darajasi jihatidan G'arbiy Germaniya yerlaridan bir necha barobar orqada qolgan bo'lib, 1979 yil mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari g'arb andozalariga nisbatan 46%ni, 1989 yil esa 30-40% tashkil qilgan. Aholining turmush darajasi va malakaviy mahorati nisbatan past, iqtisodiy tarkibi raqobatbardosh emas. SHarqiy Germaniya bilan G'arbiy Germaniya o'rtasida 1990 yil 1 iyulda ijtimoiy-iqtisodiy va valyuta ittifoqi hamda 30 noyabrda davlatlarni birlashtirish to'g'risida shartnoma imzolangandan so'ng GFR Konstitutsiyasi va sotsial bozor xo'jaligi tamoyillarini SHarqiy Germaniya hududiga tadbiiq qilish boshlandi. Natijada, GFRda samarali faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy va iqtisodiy sistema, institutsional tarkib, huquqiy asos va qonuniy normalar SHarqiy Germaniyada ham amal qila boshladi. Dunyodagi barqaror valyutalardan biri nemis markasi, bank va moliya tizimi, iqtisodiyotni erkinlashtirish, xususiyashtirishni amalga oshirish, makroiqtisodiy moliyaviy barqarorlashuv oqibatida 1994 yildan boshlab xo'jalikda ijobiy tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi. Keng ko'lamdagi moliyaviy (1991-1998 yillarda SHarqiy Germaniya hududiga 1,4 trln. nemis markasi kiritildi) va boshqa iqtisodiy yordamga qaramay, iqtisodiy, ayniqsa sotsial muammolar yuzaga keldi. Bu ko'plab korxonalarning g'arbiy ishlab chiqaruvchilar raqobatiga dosh bera olmasligi va ishsizlikning o'sishi bilan bog'liq bo'ldi. SHarqiy Germaniya iqtisodiyotidagi transformatsiya jarayonlari ko'plab qiyinchiliklarni boshdan kechirayotganligiga qaramay, rivojlanib bormoqda.

GFRni tarixiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, ichki bozor va xalqaro xo'jalik tizimiga tortilganlik bo'yicha 5 ta - SHimoliy, G'arbiy, Janubi-G'arbiy, SHarqiy va Janubiy iqtisodiy rayonlarga ajratish mumkin.

- **SHimoliy iqtisodiy rayon** tarkibiga Meklenburg-Old Pomeraniya, SHlezvig-Gol'shteyn, Quyi Saksoniya yerlari, Gamburg va Bremen yer-shaharlari kiradi. Iqtisodiy rayon dengizbo'yi holati va tashqi savdo aloqalariga xizmat qilish bilan ajralib turadi. Sertarmoq sanoat ishlab chiqarishiga ega, ayniqsa, kemasozlik, avtomobilsozlik, kimyo, neft-kimyo, metallurgiya, oziq-ovqat sanoati rivojlangan. Iqtisodiy rayonda Gamburg (2,0 mln.dan ortiq aholi) yirik sanoat va madaniyat markazi, xalqaro port, temir yo'l, avtomobil va havo yo'llari tugunidir. SHuningdek, Bremen, Emden, Rostok, SHverin, Kil, Lyubek, Vol'fsburg, Gannover, Braunshveyg, Zal'tsigitter shaharlari metallurgiya, mashinasozlik (avtomobilsozlik, samolyotsozlik, kemasozlik), neftni qayta ishlash, kimyo va neft-kimyo, oziq-ovqat sanoati rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Sut chorvachiligi va cho'chqachilik yetakchi tarmoq, dehqonchilikda roj, tariq, kartoshka, bug'doy, qand lavlagi va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtiriladi.

- **G'arbiy (SHimoliy Reyn-Vestfaliya yeri).** Iqtisodiy rayon GFRning iqtisodiy rivojlangan industrial hududidir. Rur industrial o'lkasi mamlakatning iqtisodiy rivojlangan yadrosi bo'lib, dunyo mamlakatlarining birortasida bunday yuqori darajada sanoat rivojlangan hudud yo'q. O'nlab shahar aglomeratsiyalari bir-biri bilan qo'shib ketgan, urbanizatsiyalashish ko'rsatkichi g'oyat yuqoridir (95% dan ortiq). Har bir km² hududga 6 mingdan ortiq aholi to'g'ri keladi. Yirik shaharlari – Dessen (og'ir industriya, mashinasozlik, kimyo), Duysburg (ko'mir qazib chiqarish, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika va elektronika, kimyo sanoati, transport tuguni va port shahar), Dyussel'dorf (mashinasozlik, metallurgiya, elektrotexnika va elektronika, yengil va oziq-ovqat tarmoqlari), Vupertal (mashinasozlik va to'qimachilik sanoati), Kyoln (transport tuguni, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, neftni qayta ishlash va neft-kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoati) bo'lsa Bonn shahri 40 yildan ortiq GFR poytaxti bo'lgan

(AQSHning Vashington shahriga o'xshash maxsus poytaxt sifatida barpo qilingan).

- **Janubi-G'arbiy iqtisodiy rayon** tarkibiga Baden-Vyurtemberg, Reynland-Pfalts, Gessen va Saar yerlari kiradi. Tabiiy sharoiti sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun juda qulay. XX asr 50-yillaridan boshlab sanoatning yangi va o'ta yangi tarmoqlari – mashinasozlik (avtomobilsozlik), elektrotexnika va elektronika, kimyo va neftni qayta ishlash, an'anaviy tarmoqlar – toshko'mir qazib chiqarish, qora metallurgiya, aniq mexanika va optika, yengil va oziq-ovqat sanoati rivojlangan. Frankfurt, SHtutgart, Mangeym, Karlsrue shaharlari yirik sanoat markazlaridir.

Qishloq xo'jaligida uzumchilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik, tamakichilik rivojlangan bo'lib, mamlakatning boshqa sanoat rayonlarini ushbu mahsulotlar bilan ta'minlaydi.

- **SHarqiy iqtisodiy rayon** tarkibiga Berlin, Brandenburg, Saksoniya Respublikasi va Tyurengiya Respublikasi yerlari kiradi. Iqtisodiy rayon ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra boshqa iqtisodiy rayonlardan ancha orqada. SHuning uchun 90-yillardan boshlab sharqiy iqtisodiy rayon xo'jaligini rivojlantirish yuzasidan federal hukumat tomonidan bir qator iqtisodiy, ijtimoiy va moliyaviy dasturlar, yangi raqobatbardosh ishlab chiqarish tizimlari va xizmatlarni, yuqori ishlab chiqarish munosabatlarini shakllantirish tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiy rayonda Berlin – mamlakat poytaxti, yirik sanoat, madaniyat, moliya markazi va transport tuguni. Mashinasozlik, metallni qayta ishlash, elektrotexnika va elektronika, kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoati rivojlanib bormoqda. Iqtisodiy rayon xo'jalik tarkibi jiddiy o'zgarmoque. Zamonaviy ishlab chiqarish tizimlari va xizmatlar yuzaga kelmoqda. Potsdam, Brandenburg, SHvedt, Magdeburg, Galle, Drezden, Erfurt, Gera, Yena, Veymar va boshqa shaharlar nafaqat sanoat markazlari balki nemis adabiyoti, san'ati va yodgorliklari shaharlari hamdir. Qishloq xo'jaligida donli ekinlar (bug'doy), qand lavlagi, kartoshka-

sabzovot-bog'dorchilik, sut-go'sht chorvachiligi va cho'chqachilik yetakchi o'rin tutadi.

- **Janubiy iqtisodiy rayon** tarkibiga Bavariya Respublikasi kiradi. Industrial ishlab chiqarish tarkibida umumiy va transport mashinasozligi (avtomobillar), 50-yillardan boshlab elektrotexnika va elektronika, samolyotsozlik va motorsozlik, harbiy sanoat, atom sanoati, kosmik-raketa sanoati, harbiy kimyo, neftni qayta ishlash, yengil va oziq-ovqat (pivo), o'yinchoqlar, forfor-fayans va boshqa o'ta zamonaviy sanoat tarmoqlari rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Yirik markazlar – Myunxen, Nyurnberg va Augsburgda asosiy sanoat korxonalari to'plangan.

Sut chorvachiligi, cho'chqachilik, tekislik va daryo vodiylarida bug'doy, arpa, kartoshka, qand lavlagi, sabzovotchilik, tamakichilik, xmel' yetishtirish va uzumchilik rivojlangan.

Tashqi iqtisodiy aloqalar. GFRda tashqi iqtisodiy aloqalarga alohida ahamiyat qaratiladi. Asosiy tashqi savdo sheriklari YeI mamlakatlari, AQSH va Yaponiyadir. SHuningdek, nemis firmalari Janubi-SHarqiy Osiyo mamlakatlari, Lotin Amerikasi, Janubiy Afrika mamlakatlari, Markaziy va SHarqiy Yevropa, Rossiya, Ukraina, Boltiqbo'yi mamlakatlari iqtisodiy hayotida o'z faoliyatini kengaytirmoqdalar. Tashqi savdo aylanmasining 55% YeI mamlakatlariga, shuningdek, AQSHga 8-9%, Yaponiyaga 3-4%, rivojlanayotgan mamlakatlarga 12% to'g'ri keladi.

Tashqi savdo GFR iqtisodiyotining barqoror rivojlanib borayotgan sohasi, iqtisodiy o'sish stimulyatori sifatida YaIMda hissasi (12 %) yuqori bo'lishiga olib keladi. CHunonchi, keyingi yillarda YaIM eksport va importning (xizmatlar bilan) hissasi mos ravishda 26,6 va 24,9%ni (joriy narxlarda) tashkil qildi. Germaniya tashqi savdo balansi ijobiy salbdoga egadir.

GFRning tashqi savdo tovar tarkibida tayyor sanoat mahsulotlari hissasi (tovar aylanmasi qiymatining 90% dan ortig'i) yuqori. Germaniya eksportining tovar tarkibi XX asrning 60-yillarida shakllangan bo'lib, hozirga qadar barqoror rivojlanib kelmoqda. Eksportda investitsion sanoat tovarlari, mashina va jihozlar (56%), sanoat xom ashyolari va yarim fabrikatlar (22,4% dan ortiq), keng sanoat

is'temol tovarlari, importda tayyor sanoat mahsulotlari (70%) va yarim fabrikatlar (10%), xom ashyo (5%), ya'ni, avtomobillar, ko'tarma-transport vositalari, elektrotexnika jihozlari, neft, tabiiy gaz, ko'mir, rangli metallar, propan, mineral xom ashyo, to'qimachilik mahsulotlari, kiyim-kechak asosiy o'rin tutadi.

GFR yoqilg'i resurslariga bo'lgan ehtiyojining (neftning-98%, tabiiy gazning-80%, toshko'mirning-26% va qo'ng'ir ko'mirning-2%) katta qismini va ayni vaqtda yuqori texnologik tovarlarni import hisobiga qondiradi. Germaniya dunyodagi eng yirik kapital eksport qiluvchi mamlakat. Germaniya kompaniya va firmalari kapital eksport qilish bo'yicha Iqtisodiy Hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (IHRT) reytingida uchinchi o'rinda turadi va sobiq ittifoq hududidagi postsotsialistik davlatlar bozorlarini intensiv o'zlashtirmoqda. Qo'shma korxonalar va nemis firmalarining «qiz» korxonalari – filiallari barpo etilmoqda. Ayniqsa, CHexiya, Vengriya, Rossiya bilan aloqalar intensiv rivojlanib bormoqda.

Germaniya bilan O'zbekiston o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992 yildan boshlandi. 1993 yil Berlin shahrida O'zbekiston elchixonasi ochildi. 1993 yildan Germaniya va O'zbekiston o'rtasida texnik va madaniy sohalar bo'yicha hamkorlik dasturlari amalga oshirilmoqda. 2006 yil O'zbekiston va Germaniya o'rtasida tashqi savdo aylanmasi 324,0 mln. AQSH doll. ga yetdi.

Germaniya O'zbekistondan paxta tolasi, mis va undan yasalgan buyumlar, rangli metallar oladi, turli xizmatlardan foydalanadi. O'z navbatida Germaniya O'zbekistonga asbob-uskunalar, oziq-ovqat mahsulotlari (baliq konservalari, qand-shakar, un, kimyo sanoati mahsulotlari, qora metall, transport va aloqa vositalari, tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari va boshq.) eksport qiladi hamda turli xizmatlar ko'rsatadi.

Germaniyaning 40 dan ortiq firma va kompaniyalari («Daymle Bents», «Simens», «Lyufganza», «BASF», «Salamander», «Alkatel», «Tissen» va boshq.) ishtirokida «Landtexnik-Toshkent», «CHirkom», «Grasso», «ToshVirt», «Intermed Ekasan», «O'zsalaman», «O'z-Vinkler» kabi o'nlab qo'shma korxonalar barpo etildi.

Germaniya-O'zbekiston o'rtasida ilmiy-texnik hamkorlik yuqori texnologiyalar, oziq-ovqat, yo'l texnikasi, biotexnika, aloqa, tibbiyot va farmatsevtika, qog'oz ishlab chiqarish, elektrotexnika va elektronika, ekologik sof ishlab chiqarish kabi sohalarda kengayib bormoqda.

Xulosa

Hozirgi Germaniya — jahonning eng rivojlangan mamlakatlaridan biri. Ichki yalpi mahsulot va sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha u AQSH va Yaponiyadan keyingi uchinchi o'rinni egallaydi. Tashqi savdo aylanmasining hajmi bo'yicha jahonda ikkinchi o'rindaturadi.

Germaniyaning Yevropa va jahon xo'jaligidagi muhim ahamiyatini uning yuqori snath mahsulot chiqashga qaratilgan sanoati belgilaydi.

Fantalab tarmoqlarning hissasi ortib bormoqda. Stanoklar va boshqa ishlab chiqarish jihozlarini, avtomobil, organik kimyo mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha Germaniya dunyoda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. GFR ning barcha yirik sanoat kompaniyalari transmilliy korporatsiyalardan iboratdir («**Daimler-Benz**», «**Wolkswagen**», «**Siemens**», «**Hoechst**», «**Bayer**»).

Germaniya energetikasi o'z ehtiyojlarining yarmidan ko'pini import hisobiga qondiradi. Neft va gaz asosiy ahamiyatga ega. Ko'mirning hissasi 30% ga yaqin.

Neft

tankerlarda va neft quvurlari orqali Shlmoliy dengiz, Rossiya, Afrika davlatlari (Nigeriya, Liviya), Fors ko'rfazi davlatlaridan keltiriladi. Neftni qayta ishlash zavodlari mamlakat bo'ylab bir tekis joylashgan. Eng yirik markazlar — **Gamburg**, **Kyoln**, **Karlsruhe**, **Sbvedt** va boshqalar.

GFR da elektr energiyaning asosiy qismi issiqlik elektr stansiyalarida ishlab chiqariladi. IES lar Rur va Saar havzalarida, port shaharlarida— ko'mirda, neftni qayta ishlash markazlarida — mazutda ishlaydi, boshqa IES lar esa aralash yoqflg'ida ishlaydi. Keyingi vaqtda mahalliy ko'mirga nisbatan Avstraliyadan arzon bahoda olib kelinayotgan ko'mirning ahamiyati oshib bormoqda.

AES larda elektr quvvatining 30%i ishlab chiqariladi (ular ko'mir havzalarining chegarasidan tashqarida qurilgan). GES lar, asosan mamlakatning janubida (tog' daryolarida) joylashgan.

Qora va rangli metallurgiya. GFR ning **rangli metallurgiyasi**, asosan, chetdan keltirilgan va ikkilamchi xomashyo (rangli metall parchalari) da ishlaydi. Korxonalar joylashishining bosh omili — eneigiya resurslari bilan ta'minlanganlik va

xomashyoni olib kelishdagi qulaylik. Aluminiyni eritish bo'yicha Germaniya G'arbiy Yevropada faqat Norvegiyadan keyingi ikkinchi o'rinni egallaydi. Asosiy zavodlar Shimoliy Reyn-Vestfaliya yennig hududida, shuningdek, Gamburg va Bavariyada joylashgan. Qora misni eritish Gamburg va boshqa shaharlarda amalga oshiriladi.

Mashinasozlik va metallga ishlov berish — GFR sanoatining eng rivojlangan tarmoqlaridan biri. Mamlakat sanoat mahsulotlari va eksportining yarmiga yaqin qismi mashinasozlikka to'g'ri keladi. Eng yirik markazlar quyidagilar: Myunxen, Leypsig, Nyurnberg, Mangeym, Berlin, Gamburg. Mashinasozlik ishlab chiqarishi eng ko'p rivojlangan yerlar: Baden-Vyurtembeig va Shimoliy Reyn-Vestfaliyadir.

Avtomobil ishlab chiqarish bo'yicha Germaniya dunyoda AQSh va Yaponiyadan keyingi uchinchi o'rinni egallaydi. «**Wolkswagen**», «**Mercedes-Benz**», «**BMW**», «**Ford-Verke**», « **Opel**» kabi korporatsiyalar avtomobil ishlab chiqaradi. Avtomobilsozlikning eng yirik markazlari — Volsburg, Shtutgart, Kyoln, Ryussel-xaym, Myunxen shaharlaridir.

Dengiz kemasozligining asosiy markazlari — Kil, Gamburg, Bremen, Emden, Rostok hisoblanadi, daryo kemasozligining markazi — Duysburg shahridir. Optik mexanika korxonalarining eng ko'p to'plangan joyi Baden-Vyurtemberg va Tyuringiya yerlaridir. Samolyotsozlik sanoatining yirik markazlari — Myunxen, Aersburg, Gamburg, Bremen va shu shaharlar atrofidir.

Germaniya **kimyo sanoatining** asosiy rayoni bu Shimoliy Reyn-Vestfaliya yeridir (butun mahsulotning 2/5 qismi). Eng yirik markazlari quyidagilar: **Leverkuzen** («**Bayer**» konserni), **Kyoln, Darmagen, Frankfiirt-Mayn** («**Hoechst**» konserni), **Lyudvigsxafen** («**Basf**» konserni).

Transporti. Transport yo'llarining zichligi bo'yicha Germaniya jahonda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Yevropa kengashi bo'yicha sheriklari bilan bo'lgan iqtisodiy aloqalarning jadalligi va Yevropaning markazida joylashgani bilan bog'liq holda transportning barcha turlari rivojlangan. Transport tarmog'ining asosini temiryo'llar tashkil qiladi (44 ming km ga yaqin), shulardan 90 % i elektrlashtirilgan.

Tashqi iqtisodiy aloqalari. Tashqi savdoning umumiy hajmi bo'yicha Germaniya AQSh dan keyin 2- o'rinda turadi. Tashqi savdo balansi uzluksiz ravishda ijobiy bo'lib kelmoqda. Tashqi savdoning tovar va geografik tuzilishi mamlakatning xalqaro mehnal taqsimotidagi ishtirokini aks ettiradi. GFR, awalo, sanoati rivojlangan davlatlarga, birinchi o'rinda Yevropa kengashi bo'yicha sheriklariga qarab ish tutadi. Tashqi savdo aylanmasining 50 foizi va olib chiqilayotgan sarmoyaning asosiy qismi shu davlatlarga to'g'ri keladi. Yevropaning ko'p mamlakatlari uchun Germaniya bosh savdo sherigi hisoblanadi.

Xalqaro bozorda Germaniya yuqori sifatli mahsulotlar bilan ta'minlovchi davlat sifatida tan olingan. Eksportning 90% dan ortig'ini sanoat mollari tashkil etadi. Germaniyaning barcha yirik sanoat kompaniyalari transmilliy korporatsiyalardir. Shularning ba'zilari, ayniqsa, xalqaro ixtisoslashish tarmoqlarining korporatsiyalari jahonning eng yirik korporatsiyalari hisoblanadi (kimyo sanoatida — **«Bayer»**, **«Xyoxst»**, **«Basf»** kompaniyalari, elektronikada — **«Siemens»**, avtomobilsozlikda — **«Daimler-Benz»**). Organik kimyo mahsulotlarini chetga chiqarish bo'yicha mamlakat jahonda birinchi o'rinni egallaydi, stanoklarni va boshqa ishlab chiqarish jihozlarini ekspon qilish bo'yicha birinchi o'rinni egallash uchun Yaponiya bilan musobaqalashmoqda.

Xalqaro hisob-kitobda to'lov vositasi sifatida foydalaniladigan valutarlar orasida nemis valutasini (marka) dollardan keyingi ikkinchi o'rinni egallaydi. Germaniya — jahondagi eng yirik investorlardan biri. U o'z sarmoyalarini ko'pgina davlatlarning sanoati va xizmat sohasiga sarflamoqda.

O'zbekiston davlat mustaqilligi yillarida GFR va boshqa Yevropa mamlakatlari bilan xalqaro munosabatlarning ko'p shakllari bo'yicha hamkorlik shartnomalarini imzolagan. Shularning ichida savdo aloqalari ustun ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining jarai tovar aylanmasining 5% hamda importning salkam 1/6 qismi GFR ga to'g'ri keladi (2003). Yevropa mamlakatlaridan Shveysariya, Buyuk Britaniya va Italiya bilan respublika salmoqli eksport-import aloqalariga ega. Germaniyaning **«Siemens»** va **«Alkalel»** kompaniyalari ishtirokida O'zbekistonning telekommunikatsiya tarmoqlari qayta ta'mirlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston – buyuk kelajak sari. -Toshkent., «O'zbekiston», 1999.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-Toshkent, “O'zbekiston”, 2011.
- 3.Boltaev M. Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T., 2003.
- 4 . Ekonomicheskaya i sotsial'naya geografiya stran blijnego zarubej'ya. Pod red. M.Ratanova. –M., 2004.
5. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya. Toshkent 2004.
6. Ageeva R.A. Страны i народы. M., 2002.
7. Goudie A. Physische Geographie. Munxen. «Westerman» 1997
8. Gograpfieg' Physische Geographie'. Bonn. «Cornelsen» 1989.
- 9.Kulke E. Wirtschafts - geographie. Munxen – Zurich. «Ferdinand Schoningh» 2004.
10. Hagget P. Geographie. Bonn. «Cornelsen» 2001.
- 11.Bradschaw M. World regional geographi. Boston. «Mc Graw – Hill». 2000.